
Bayram tadbirida jamoatchilik ishlarida faol bo'lgan fuqarolar taqdirlandi

1 sektor hududidagi "Tinchlik" mahalla fuqarolar yig'inida ham Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan madaniy tadbir o'tkazildi. Mahalla guzarida o'tgan xalqimizning urf-odatlariga aylangan Davrishona tadbiri nahorgi nonushta bilan boshlandi.

Mahalla ahli sog' va salomat bahor fasliga kelingani, joriy yilida ham tinchlik-omonlik bo'lishi hamda dexqonchiliklarimiz, topgan daromadlarimiz barakali bo'lishini niyat qilib nuroniylarimiz tomonidan duolar qilindi. Qo'ylar so'yilib ehson qilindi.

Bayram tadbiriga xotin-qizlar ham taklif qilindi. Sho'x kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Shu kuni mahalla ahli madaniy hordiq chiqardilar.

Bayramona tarzda o'tgan tadbirda jamoatchilik ishlarida faol bo'lgan fuqarolar mahalla xodimlari tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-14 19:25:48